



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

10 ЖИЛД, 10 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 10, НОМЕР 10

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 10, ISSUE 10



ТОШКЕНТ-2025

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№10 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2025-10>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

Mexmonov Kambarriddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farhod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


1. Mashrapov Madorbek Zoxidbek o'g'li O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AVTOMOBIL YO'LLARI SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVINI MA'MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH.....	5
2. Хошимова Юлдузхон Олимжонова СТОИМОСТЬ ТОВАРНОГО ЗНАКА В СИСТЕМЕ НЕМАТЕРИАЛЬНЫХ АКТИВОВ: ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ И ОЦЕНКА.....	15
3. Овулов Пўлатжон Илхом ўғли ҲУҚУҚ ВА МУОМАЛА ЛАЁҚАТИ, ДАВЛАТ ИММУНИТЕТИ – ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИНГ МУҲИМ ЭЛЕМЕНТИ СИФАТИДА.....	23
4. Шукурова Малика Шахобидинова ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚДА НИКОҲ ТУШУНЧАСИ ВА ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ.....	33
5. Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li SUG'URTA BOZORINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SUG'URTA FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY MECHANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	45
6. Ғайбуллаев Фаррух Юлдашевич СУД ҲОКИМИЯТИ ФАОЛИЯТИ УСТИДАН ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИ: ҲОЛАТИ, ТАҲЛИЛИ, ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ.....	59
7. Maxmudov Alisher Abdusalimovich YEVIROPA PROKURATURASI – ERKINLIK XAVFSIZLIK VA ODIL SUDLOV KAFOLATI..	66
8. Сафаев Мансурбек Илхомжонович ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ ЗАРУРАТИ.....	73
9. Xudaykulov Feruzbek Xurramovich FIRIBGARLIK JINOYATIDA SUN'IY INTELLEKT JINOYAT SODIR ETISH VOSITASI SIFATIDA: QONUNCHILIK, AMALIYOT VA MUAMMOLAR.....	82
10. Баракаев Лазизжон Отакулович ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА МАХСУС ИҚТИСОДИЙ БИЛИМЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ПРОЦЕССУАЛ ШАКЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ.....	93
11. Имомназаров Алишер Хасанович ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИ ТИЗИМИДА КЎЗДАН КЕЧИРИШНИНГ ЎРНИ ВА БОШҚА ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИ БИЛАН ЎЗARO НИСБАТИ ТАҲЛИЛИ.....	103
12. Қурбонов Шухратжон Шавкатжонович ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ ЎТКАЗИШНИНГ МОДДИЙ(ФАКТИК) АСОСЛАРИНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ МУАММОЛАРИ.....	113



Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0005-8239-7332
E-mail: abbosjon.umarov@mail.ru

SUG'URTA BOZORINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SUG'URTA FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

For citation: Umarov Abbosjon Asliddin ugli. IMPROVING LEGAL MECHANISMS FOR REGULATING INSURANCE ACTIVITIES IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION OF THE INSURANCE MARKET. Journal of Law Research. 2025, 10 vol., issue 10.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17353159>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorini raqamlashtirish sharoitida sug'urta faoliyatini tartibga solishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqotda sug'urta faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari, sug'urta sohasida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, elektron sug'urta xizmatlarini ko'rsatish tartibi, shuningdek raqamli sug'urta xizmatlarini ko'rsatishda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalalari tahlil qilingan. Muallif sug'urta bozorini raqamlashtirish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy muammolarni aniqlab, ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqqan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarning raqamli sug'urta xizmatlarini tartibga solish borasidagi ilg'or tajribasi o'rganilib, O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda sug'urta faoliyatini raqamlashtirish sharoitida huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Sug'urta faoliyati, raqamlashtirish, huquqiy mexanizmlar, elektron sug'urta xizmatlari, sug'urta qonunchiligi, raqamli texnologiyalar, kiber xavfsizlik, O'zbekiston, sug'urta polisi, iste'molchi huquqlari, insurtex.

Умаров Аббосжон Аслиддин углы,
Самостоятельный соискатель Ташкентского
государственного юридического университета
ORCID: 0009-0005-8239-7332
E-mail: abbosjon.umarov@mail.ru

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВЫХ МЕХАНИЗМОВ РЕГУЛИРОВАНИЯ СТРАХОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ СТРАХОВОГО РЫНКА

АННОТАЦИЯ

Настоящая статья посвящена вопросам совершенствования правовых механизмов регулирования страховой деятельности в условиях цифровизации страхового рынка Республики Узбекистан. В исследовании анализируются теоретико-правовые основы страховой деятельности, внедрение цифровых технологий в страховую сферу, порядок предоставления электронных страховых услуг, а также вопросы защиты прав потребителей при предоставлении цифровых страховых услуг. Автором выявлены правовые проблемы, возникающие в процессе цифровизации страхового рынка, и разработаны предложения по их решению. Также изучен передовой опыт зарубежных стран в сфере регулирования цифровых страховых услуг и рассмотрены возможности его применения в условиях Узбекистана. По результатам исследования разработаны практические предложения и рекомендации по совершенствованию механизмов правового регулирования в условиях цифровизации страховой деятельности в Узбекистане.

Ключевые слова: Страховая деятельность, цифровизация, правовые механизмы, электронные страховые услуги, страховое законодательство, цифровые технологии, кибербезопасность, Узбекистан, страховой полис, права потребителей, иншуртех.

Umarov Abbosjon Asliddin ugli,

Independent researcher at Tashkent State University of Law

ORCID: 0009-0005-8239-7332

E-mail: abbosjon.umarov@mail.ru

IMPROVING LEGAL MECHANISMS FOR REGULATING INSURANCE ACTIVITIES IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION OF THE INSURANCE MARKET

ANNOTATION

This article is devoted to the issues of improving legal mechanisms for regulating insurance activities in the context of digitalization of the insurance market in the Republic of Uzbekistan. The study analyzes the theoretical and legal foundations of insurance activities, the introduction of digital technologies in the insurance sector, the procedure for providing electronic insurance services, as well as issues of protecting consumer rights in the provision of digital insurance services. The author identified legal problems arising in the process of digitalization of the insurance market and developed proposals for their solution. Also, the advanced experience of foreign countries in regulating digital insurance services was studied and the possibilities of their application in the conditions of Uzbekistan were considered. Based on the results of the study, practical proposals and recommendations were developed to improve the mechanisms of legal regulation in the context of the digitalization of insurance activities in Uzbekistan.

Keywords: Insurance activities, digitalization, legal mechanisms, electronic insurance services, insurance legislation, digital technologies, cybersecurity, Uzbekistan, insurance policy, consumer rights, insurtech.

Kirish

Zamonaviy jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida raqamli texnologiyalar barcha sohalarda, shu jumladan sugʻurta xizmatlari sohasida ham keng qoʻllanilmoqda. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi sugʻurta faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Oʻzbekiston Respublikasida ham sugʻurta tizimini raqamlashtirish, elektron sugʻurta xizmatlarini kengaytirish, sugʻurta kompaniyalarining faoliyatini raqamli transformatsiya qilish boʻyicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktyabrdagi “Sugʻurta bozorini raqamlashtirish va hayot sugʻurtasi sohasini rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-5265-son qarori sugʻurta bozorini yangi bosqichga koʻtarish va raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish uchun muhim asos boʻldi. Shuningdek, 2021-yil 23-noyabrdagi

“Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi sug‘urta sohasidagi raqamlashtirish jarayonlarining huquqiy asoslarini mustahkamladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda elektron sug‘urta polislarini joriy etish, masofaviy sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish, raqamli identifikatsiya tizimlarini qo‘llash, sug‘urta hodisalari yuzasidan masofaviy talab qo‘yish va sug‘urta tovonini to‘lash kabi raqamli sug‘urta xizmatlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bu jarayonda sug‘urta munosabatlarini raqamli muhitda tartibga solish, sug‘urta ishtirokchilari huquqlarini himoya qilish, ma‘lumotlar xavfsizligini ta‘minlash masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Biroq, sug‘urta bozorini raqamlashtirish jarayonida bir qator huquqiy muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan, elektron sug‘urta xizmatlarining huquqiy maqomi, elektron sug‘urta shartnomalarining yuridik kuchi, raqamli identifikatsiya usullarining huquqiy jihatlari, raqamli sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishda iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari, shuningdek, kiber xavfsizlik va shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq masalalar yetarli darajada tartibga solinmagan.

Shu munosabat bilan sug‘urta bozorini raqamlashtirish sharoitida sug‘urta faoliyatini tartibga solishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, qonunchilik bazasini mustahkamlash, raqamli sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish tartibini aniq belgilash va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Ushbu maqolada O‘zbekistonda sug‘urta bozorini raqamlashtirish sharoitida sug‘urta faoliyatini tartibga solishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi va bu borada amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Sug‘urta bozorini raqamlashtirish jarayonlari va ularni huquqiy tartibga solish masalalari ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda raqamli sug‘urta xizmatlarining rivojlanishi, sug‘urta faoliyatini raqamlashtirish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy muammolar, elektron sug‘urta xizmatlarini tartibga solishning huquqiy mexanizmlari kabi masalalar yoritilgan.

O‘zbekistonlik olim M. Ostonov o‘zining “O‘zbekiston sug‘urta tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali sug‘urta bozorini rivojlantirish istiqbollari” maqolasida sug‘urta faoliyatini raqamlashtirish jarayonlarining ahamiyatini ta‘kidlab, “sug‘urta faoliyati mamlakat moliyaviy tizimining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar va boshqa kutilmagan holatlar riskini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi” degan fikrni ilgari suradi [1]. Muallifning fikriga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni sug‘urta sohasiga joriy etish orqali xizmatlar sifatini oshirish, ma‘muriy xarajatlarni kamaytirish va mijozlar qamrovini kengaytirish mumkin. Bizning fikrimizcha, M. Ostonovning yondashuvi sug‘urta sohasini raqamlashtirishning iqtisodiy jihatlarga ko‘proq e‘tibor qaratadi, ammo bu jarayonning huquqiy asoslarini yetarli darajada ochib bermaydi.

D.R. Maxmudov o‘zining tadqiqotlarida sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish masalalarini tadqiq etadi. Uning fikricha, “sug‘urta va sug‘urta faoliyati tushunchalari qonunchilikda yagona yondashuv asosida berilishi lozim, bu sug‘urta munosabatlarini tartibga solishda aniqlikni ta‘minlaydi” [2]. Muallif raqamli sug‘urta xizmatlari kontekstida fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishning muhim jihatlari sifatida elektron shakldagi bitimlarni tuzish, sug‘urta polislarini elektron shaklda rasmiylashtirish va sug‘urta hodisalari yuz berganda talablarni masofaviy tarzda ko‘rib chiqish masalalarini ajratib ko‘rsatadi. Bizning fikrimizcha, D.R. Maxmudovning yondashuvi sug‘urta munosabatlarini raqamli muhitda tartibga solishning huquqiy asoslarini tushunish uchun muhim, ammo zamonaviy raqamli texnologiyalar (masalan, katta ma‘lumotlar, sun‘iy intellekt, blokcheyn) kontekstida sug‘urta munosabatlarini tartibga solish masalalari yetarli darajada ochib berilmagan.

Sh.O‘. Djanadilov “Sug‘urta faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etilishining uslubiy asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiyasida sug‘urta faoliyatini raqamlashtirish jarayonlarining metodologik asoslarini tadqiq etadi. Muallif sug‘urta kompaniyalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarini tahlil qilib, “raqamli sug‘urta texnologiyalari sug‘urta operatsiyalarini

avtomatlashtirish, mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni takomillashtirish va yangi sug‘urta mahsulotlarini yaratish imkonini beradi” degan xulosaga keladi[3]. Bizning fikrimizcha, Sh.O‘. Djanadilovning yondashuvi sug‘urta faoliyatini raqamlashtirishning texnologik va tashkiliy jihatlarini yaxshi yoritgan, ammo bu jarayonning huquqiy mexanizmlarini yetarli darajada tadqiq etmagan.

Sug‘urta faoliyatini raqamlashtirish sharoitida huquqiy tartibga solish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar orasida Haliqulova G.T.ning ishlari alohida ahamiyatga ega. Uning “Sug‘urta tizimi va uning amal qilish mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiyasida sug‘urta tizimining huquqiy asoslari tahlil qilingan. Muallif “sug‘urta tizimining huquqiy asosi huquqiy me‘yorlar majmui, sug‘urta munosabatlari ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlarini o‘z ichiga oladi” deb ta‘kidlaydi[4]. Raqamli sug‘urta xizmatlari kontekstida sug‘urta tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurligini ta‘kidlab, muallif elektron sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish tartibi, elektron sug‘urta shartnomalarining yuridik maqomi, sug‘urta ma‘lumotlarining xavfsizligini ta‘minlash kabi masalalarga e‘tibor qaratadi. Bizning fikrimizcha, Haliqulova G.T.ning tadqiqotlari sug‘urta tizimining huquqiy asoslarini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, raqamli sug‘urta xizmatlarini tartibga solishning huquqiy mexanizmlarini yetarli darajada detallashtirmagan.

Sug‘urta huquqi sohasidagi olimlar O. Okyulov va N. Imomov o‘zlarining “Sug‘urta huquqi” o‘quv qo‘llanmasida sug‘urta munosabatlarining huquqiy tabiati va ularni tartibga solish mexanizmlarini tadqiq etadilar. Mualliflar sug‘urtani “har qanday faoliyatda tavakkalchilik xavf-xatarini kamaytirish vositasi, juda katta moliyaviy resurslarning to‘planishini va uni muomalaga kiritib kredit-sarmoya tizimini ta‘minlashning qudratli manbai” sifatida ta‘riflaydilar [5]. Bizning fikrimizcha, mualliflar tomonidan taqdim etilgan sug‘urta munosabatlarining huquqiy tabiati tahlili sug‘urta faoliyatini raqamlashtirish kontekstida yangi yondashuvlar bilan to‘ldirilishi lozim, chunki raqamli muhitda sug‘urta munosabatlarining huquqiy tabiati o‘zgarishi mumkin.

M.S. Boltayevning “Sug‘urta huquqi” darsligida sug‘urta shartnomalarining huquqiy tabiati va turlari, shu jumladan elektron sug‘urta shartnomalari masalalari yoritilgan. Muallif ixtiyoriy sug‘urta shartnomasining xususiyatlarini belgilovchi yuridik belgilarni ajratib ko‘rsatadi, jumladan: “shartnoma ishtirokchilarining o‘zaro erkini ifodalaydigan kelishilgan harakatlari mavjudligi”, “haq evazigalik”, “sug‘urtaning maqsadli yo‘naltirilganligi”, “sug‘urta hodisasi hisoblanadigan voqealar va holatlarning oldindan bilishning mumkin emasligi”, “sug‘urta shartnomasining tavakkalchilik tusi” [6]. Bizning fikrimizcha, M.S. Boltayev tomonidan ajratib ko‘rsatilgan sug‘urta shartnomasining huquqiy belgilari raqamli muhitda ham o‘z ahamiyatini saqlab qoladi, ammo elektron sug‘urta shartnomalarining o‘ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olish lozim.

F.Sh. Hamrayevaning “Raqamlashtirish sharoitida sug‘urta tizimida majburiy sug‘urta turlarining o‘ziga xos jihatlari” maqolasida raqamli texnologiyalarning sug‘urta tizimiga ta‘siri, majburiy sug‘urta turlarini raqamlashtirish jarayonlari tahlil qilingan. Muallif “majburiy sug‘urta turlarini raqamlashtirish sug‘urta qamrovini kengaytirish, sug‘urta polislarini rasmiylashtirish jarayonini soddalashtirish va sug‘urta hodisalari yuz berganda sug‘urta to‘voni to‘lash jarayonlarini tezlashtirish imkonini beradi” degan fikrni ilgari suradi [7]. Bizning fikrimizcha, F.Sh. Hamrayevaning majburiy sug‘urta turlarini raqamlashtirish borasidagi fikrlari amaliy ahamiyatga ega, ammo bu jarayonning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yetarli darajada yoritilmagan.

Xorijiy olimlarning tadqiqotlari orasida V.A. Bolqibekov, S.N. Voronova va boshqalarning ishlari diqqatga sazovor. V.A. Bolqibekov sug‘urta bozorini raqamlashtirish jarayonlarining huquqiy jihatlarini tadqiq etib, “raqamli sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishda iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish va kiber xavfsizlikni ta‘minlash masalalari alohida ahamiyatga ega” deb ta‘kidlaydi [8]. S.N. Voronova esa o‘z tadqiqotlarida “raqamli sug‘urta platformalari va elektron sug‘urta polislarining huquqiy maqomini aniq belgilash, sug‘urta faoliyatini raqamlashtirish jarayonlarini tartibga solishning muhim shartidir” degan fikrni ilgari suradi [9]. Bizning fikrimizcha, xorijiy olimlarning tadqiqotlari sug‘urta faoliyatini raqamlashtirish

jarayonlarining huquqiy jihatlarini tushunish uchun muhim, ammo O‘zbekiston sharoitida bu tajribani qo‘llash uchun milliy qonunchilik xususiyatlarini hisobga olish lozim.

A. Rahimova va E. Hojiyevlarning “O‘zbekiston Respublikasining moliya huquqi” darsligida sug‘urta huquqiy munosabatlarining moliyaviy-huquqiy jihatlari tahlil qilingan. Mualliflar sug‘urtani “keltirilishi mumkin bo‘lgan zararni maxsus tashkilotga to‘langan a‘zolik to‘lovlari orqali qoplashni ta‘minlash” sifatida ta‘riflaydilar [10]. Bizning fikrimizcha, ushbu ta‘rif raqamli sug‘urta xizmatlari kontekstida yanada kengaytirilishi lozim, chunki raqamli muhitda sug‘urta munosabatlarining moliyaviy-huquqiy jihatlari an‘anaviy sug‘urta munosabatlaridan farq qilishi mumkin.

I.X. Abduraxmonov sug‘urta funksiyalarini tahlil qilib, “sug‘urta funksiyalari taqsimlash, risklilik, oldini olish, jamg‘arish, nazorat, kredit va investitsiya funksiyalaridan iborat” deb ta‘kidlaydi [11]. Bizning fikrimizcha, raqamli sug‘urta xizmatlari kontekstida sug‘urtaning funksiyalari yanada kengayib, ma‘lumot yig‘ish va tahlil qilish, shaxsiylashtirilgan sug‘urta xizmatlarini taklif etish, real vaqt rejimida risklarni baholash kabi yangi funksiyalarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

T.M. Boymuratovning “O‘zbekistonda sug‘urta faoliyati va uni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiyasida sug‘urta faoliyatining iqtisodiy va huquqiy jihatlari tahlil qilingan. Muallif “sug‘urta faoliyatining talab va taklif asosida rivoj topishi, bir tomondan turli mulkchilik shakllaridagi sug‘urta tashkilotlarining faoliyat ko‘rsatishlari uchun zaruriy shart-sharoitni yaratsa, ikkinchi tomondan xo‘jalik subyektlarining mol-mulk hamda daromadlarini kutilmagan turli risklardan himoyasini ta‘minlaydi” deb ta‘kidlaydi [12]. Bizning fikrimizcha, T.M. Boymuratovning yondashuvi sug‘urta faoliyatining iqtisodiy jihatlari yaxshi yoritgan, ammo raqamli sug‘urta xizmatlarini tartibga solishning huquqiy mexanizmlarini yetarli darajada ochib bermagan.

S.A. Umarovning fikricha, “sug‘urta iste‘molchilarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, sug‘urta faoliyati ustidan davlat nazoratini kuchaytirish va sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash sug‘urta bozorini rivojlantirishning muhim shartlaridir” [13]. Bizning fikrimizcha, S.A. Umarovning yondashuvi sug‘urta bozorini tartibga solishning muhim jihatlari qamrab olsa-da, raqamli sug‘urta xizmatlarini tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlarini yetarli darajada inobatga olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrda “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni sug‘urta faoliyatini tartibga solishning asosiy huquqiy hujjati hisoblanadi. Ushbu qonunda sug‘urta faoliyatini raqamlashtirish jarayonlarining huquqiy asoslari ham belgilangan. Xususan, qonunning 3-moddasida “sug‘urta tushunchasi” muayyan voqea (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash, tovonlar va boshqa to‘lovlar to‘lash uchun maqsadli pul jamg‘armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar” sifatida ta‘riflangan [14]. Bizning fikrimizcha, ushbu ta‘rif raqamli sug‘urta xizmatlari kontekstida ham o‘z ahamiyatini saqlab qoladi, ammo qonunda raqamli sug‘urta xizmatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi normalarni kiritish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili asosida aytish mumkinki, O‘zbekistonda sug‘urta bozorini raqamlashtirish jarayonlarining iqtisodiy, texnologik, tashkiliy jihatlari ma‘lum darajada tadqiq etilgan bo‘lsa-da, bu jarayonning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan. Sug‘urta faoliyatini raqamli muhitda tartibga solish, elektron sug‘urta shartnomalarining huquqiy maqomini aniqlash, raqamli sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishda iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish va kiber xavfsizlikni ta‘minlash kabi masalalar hali ham ko‘proq tadqiqot va amaliy yechimlarni talab qiladi.

Mazkur tadqiqot ishida sug‘urta bozorini raqamlashtirish sharoitida sug‘urta faoliyatini tartibga solishning huquqiy mexanizmlarini o‘rganish uchun quyidagi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tizimli tahlil usuli yordamida sug‘urta faoliyatini raqamlashtirish mexanizmlarining huquqiy tabiati va tartibga solish tizimi o‘rganildi. Qiyosiy-huquqiy tahlil usuli orqali O‘zbekiston va xorijiy davlatlar sug‘urta qonunchiligidagi raqamlashtirish bilan bog‘liq normalar taqqoslandi. Statistik tahlil usuli yordamida O‘zbekistonda raqamli sug‘urta xizmatlarining rivojlanish dinamikasi

o'rganildi. Mantiqiy-yuridik tahlil usuli orqali amaldagi qonunchilikdagi bo'shliqlar va kolliziyalar aniqlandi. Formal-yuridik usul yordamida qonunchilikdagi normalarning xususiyati va mazmuni tahlil qilindi. Shuningdek, sotsiologik so'rov usuli orqali sug'urta kompaniyalari va iste'molchilarning raqamli sug'urta xizmatlariga munosabati o'rganildi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish va tizimlashtirish uchun induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorini raqamlashtirish sharoitida sug'urta faoliyatini tartibga solishning huquqiy mexanizmlarini tadqiq etish jarayonida quyidagi natijalarga erishildi:

O'zbekiston Respublikasida sug'urta sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish va sug'urta xizmatlarini elektron shaklda ko'rsatish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasi shakllanish jarayonida.

Birinchi, elektron sug'urta shartnomalarining huquqiy maqomi bilan bog'liq muammolar. Amaldagi qonunchilikda "elektron sug'urta shartnomasi" tushunchasi aniq belgilanmagan. "Elektron turdagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi Nizomda elektron sug'urta shartnomasi a'naviy sug'urta shartnomasi bilan teng huquqiy kuchga egaligi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanishi lozimligi belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda elektron shartnomalarning haqiqiyliigi va isbotlovchi kuch doirasi bilan bog'liq muammolar uchramoqda.

Ikkinchi, iste'molchilarning elektron sug'urta xizmatlaridan foydalanish huquqlarini himoya qilish mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Iste'molchilar elektron sug'urta xizmatlaridan foydalanishda ularga taqdim etilayotgan ma'lumotlarning to'liqligi, ishonchliligi va shaffofligini baholash imkoniyatiga ega bo'lmasligi mumkin. Bu esa sug'urta kompaniyalari tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmaslik xavfini oshiradi.

Uchinchi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik masalalari. Sug'urta kompaniyalari mijozlarning katta hajmdagi shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlariga ega bo'ladi. Bu ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash, ularni uchinchi shaxslarga noqonuniy o'tkazilishini oldini olish, kiberhujumlardan himoya qilish juda muhim. Amaldagi qonunchilikda bu masalalar yetarlicha tartibga solinmagan.

To'rtinchi, elektron sug'urta tizimlarida identifikatsiya masalalari. Elektron sug'urta xizmatlari ko'rsatishda masofadan mijozlarni identifikatsiya qilish mexanizmlari mukammal emas. Bu esa firibgarlik holatlari va qalbakilashtirish holatlarining ko'payishiga olib kelishi mumkin.

Beshinchi, transchegaraviy sug'urta xizmatlarini tartibga solish muammolari. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida chet el sug'urta kompaniyalari O'zbekiston fuqarolariga masofadan turib xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Biroq, bunday xizmatlarni tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlari mavjud emas.

Sug'urta bozorini raqamlashtirish sohasida xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish natijasida quyidagi ilg'or tajribalar aniqlandi:

Janubiy Koreyada sug'urta faoliyatini raqamlashtirish borasida **"sug'urta biznesi"** atamasi qo'llanilib, u sug'urta mahsulotlarini sotishda yuzaga keladigan va hayotni sug'urtalash biznesiga, hayotni sug'urtalash bilan bog'liq bo'lmagan biznesga va uchinchi turdagi sug'urta biznesiga tegishli bo'lgan sug'urta, mukofot olish, sug'urta mukofotlarini to'lash kabi jarayonlarni qamrab oladi [15]. Bu esa raqamli sug'urta xizmatlarining huquqiy maqomini aniq belgilash imkonini beradi.

Germaniyada 2008-yilda qabul qilingan "Sug'urta shartnomasi to'g'risida"gi Qonunda elektron sug'urta shartnomalarining huquqiy maqomi aniq belgilangan va elektron shaklda tuzilgan shartnomalar an'aviy shartnomalar bilan bir xil huquqiy kuchga ega ekani belgilangan [16]. Bu elektron sug'urta shartnomalarining yuridik kuchini tan olish va ularni huquqiy jihatdan himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirishga imkon beradi.

AQSHda sug'urta faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha alohida qonun mavjud emas, biroq har bir shtat o'z hududida elektron sug'urta polislarini joriy etish, raqamli identifikatsiya va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha maxsus qoidalarni belgilaydi [17]. Bu esa mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda raqamli sug'urta xizmatlarini tartibga solish imkonini beradi.

Singapurda sug'urta biznesida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha alohida dastur mavjud bo'lib, sug'urta polisi bo'yicha tavakkal qilish yoki javobgarlikni o'z zimmasiga olish bilan

bog‘liq biznesning yuridik asoslari aniq belgilangan [18]. Bu esa raqamli sug‘urta xizmatlari ko‘rsatishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda sug‘urta bozorini raqamlashtirish doirasida quyidagi texnologiyalar joriy etilmoqda:

Yagona sug‘urta axborot tizimi. Bu tizim orqali barcha sug‘urta tashkilotlari faoliyatini monitoring qilish, sug‘urta shartnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, iste‘molchilarga sug‘urta kompaniyalari to‘g‘risida ma‘lumot berish imkoniyati mavjud. Biroq, tizimning huquqiy maqomi va unda saqlanayotgan ma‘lumotlarning yuridik ahamiyati to‘g‘risida qonunchilikda aniq me‘yorlar belgilanmagan.

O‘zbekistonda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish polislarini elektron shaklda rasmiylashtirish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Biroq, elektron sug‘urta polislarining yuridik kuchi va uni tasdiqlash tartibi bo‘yicha huquqiy mexanizmlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Ko‘plab sug‘urta kompaniyalari mobil ilovalar orqali sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatmoqda. Biroq, mobil ilovalar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarning huquqiy kuchi, ularda shakllantiriladigan hujjatlarning yuridik ahamiyati borasida qonunchilikda bo‘shliqlar mavjud.

